

INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA BOLALARNI PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASHDA OTA-ONALARNING O'RNI

Sharifova Dilfuza Ilhomovna

Surxondaryo viloyati Denov

tumani 28-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlashda ota-onalarning o'rni, ularning mas'uliyati va ta'siri yoritilgan. Shuningdek, ota-ona, maktab va psixolog o'rtasidagi hamkorlikning bola rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, ota-ona, bola, psixologik qo'llab-quvvatlash, rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, hamkorlik, tarbiya, muloqot, ishonch

KIRISH

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim tizimi bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim olish imkoniyatini yaratib bermoqda. Bu tizimda har bir bola, u qanday imkoniyatlarga ega bo'lishidan qat'i nazar, teng huquqli ta'lim olishga haqli hisoblanadi. Bunday sharoitda bolani psixologik qo'llab-quvvatlash alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda esa ota-onalarning o'rni beqiyosdir.

Bola hayotida ota-ona eng yaqin va ishonchli inson hisoblanadi. Ayniqsa, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun ota-onaning mehr-muhabbati, sabr-toqati va qo'llab-quvvatlashi juda muhimdir. Agar bola o'zini oilada qabul qilingan va tushunilgan his qilsa, uning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi va u atrof-muhitga moslashishda qiynalmaydi.

Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar nafaqat farzandining kundalik ehtiyojlarini ta'minlaydi, balki uning psixologik rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ular bolani rag'batlantiradi, uning kichik yutuqlarini qadrlaydi va qiyinchiliklarni yengishda yordam beradi. Ko'pincha alohida ehtiyojga ega bolalarning ota-onalari ruhiy bosim va tashvishlarni boshdan kechiradi. Bunday vaziyatda ularga ham psixologik yordam zarur bo'ladi. Chunki ota-onaning ruhiy holati bevosita bolaga ta'sir qiladi. Agar ota-ona ijobiy ruhda bo'lsa, bola ham o'zini xotirjam his qiladi. Maktab va ota-ona hamkorligi bu jarayonda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar, psixologlar va ota-onalar birgalikda ishlasa, bola uchun qulay muhit yaratiladi. Doimiy muloqot orqali bolaning rivojlanishidagi o'zgarishlar kuzatib boriladi va zarur choralar ko'riladi.

Psixolog ota-onalarga bolaga to'g'ri yondashuvni o'rgatadi. Masalan, bolani boshqalar bilan solishtirmaslik, unga ortiqcha bosim o'tkazmaslik, balki uning imkoniyatlariga mos talab qo'yish kerakligini tushuntiradi. Bu esa bolaning ruhiy

holatini barqaror saqlashga yordam beradi. Shuningdek, ota-onalar bolani ijtimoiy hayotga jalb etishda faol bo'lishi kerak. Uni tengdoshlari bilan muloqot qilishga undash, turli tadbirlarda ishtirok etishiga sharoit yaratish uning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi. Bola bilan muloqot qilish ham juda muhimdir. Ota-ona bolani tinglashi, uning his-tuyg'ularini tushunishga harakat qilishi zarur. Bu orqali bola o'zini qadrlangan his qiladi va ichki kechinmalarini yashirmaydi.

Inklyuziv ta'limda muvaffaqiyatga erishish uchun sabr va izchillik talab etiladi. Natijalar darhol ko'rinmasligi mumkin, ammo to'g'ri yondashuv orqali ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkin. Maktab, psixolog va ota-onaning hamkorligi esa bu jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Inklyuziv ta'lim nima? Tengdoshlaringiz, sinfdoshlaringiz orasida imkoniyati cheklangan (nogiron) bolalar ham bor, to'g'rimi? Siz ular bilan do'stlashib, birga dars tayyorlaysizmi, birga o'ynaysizmi? Axir ular ham siz kabi jamiyatda baxtli bo'lishga haqli, shunday emasmi? Inklyuziv ta'lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak. O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'i nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Xo'sh nega inklyuziv ta'lim zarur? Ba'zan tengdoshlarimiz, maktabdoshlarimiz orasida yoki mahallada imkoniyati cheklangan bolalarni ko'rib qolsak, tushunib-tushunmasdan uni ajratib qo'yishga, u bilan muloqot qilmaslikka harakat qilamiz.

Bu noto'g'ri, aslida ular bilan o'rtoq bo'lib, bir jamoa bo'lib yashasak, ularning baxtli hayot kechirishlariga hissa qo'shishimiz mumkin. Jamiyatda har bir bola baxtli bo'lishga haqli! Inklyuziv ta'limning maqsadi — alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat. Maktablar alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda har tomonlama yordam ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;
- jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;
- ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

- barcha o‘quvchilar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;
- o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko‘nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shartsharoitlar yaratish;
- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta’lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya metod va vositalarini qo‘llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

Inklyuziv ta’limda ota-onaning o‘rni. Imkoniyati cheklangan bolada o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, uning ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshligidan ilm olishga rag‘batlantirishda oila ishtiroki muhim. Shu sababli inklyuziv ta’lim jarayonida ota-onalarning ahamiyati katta. Alohida ehtiyojlari mavjud bolalarning ota-onalari farzandlari jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lish huquqiga ega ekanini tushunishlari kerak. Ota-onalar oilada sog‘lom muhitni va farzandlari orasida tenglik muhitini yaratib berishlari, imkoniyati chegaralangan farzandlariga ta’lim olish jarayonida ko‘maklashishlari juda muhim. Buning uchun, doimiy ravishda maktab jamoasi bilan aloqada bo‘lish, bolaning tengdoshlari orasida moslashib ketishi va o‘zlashtirish darajasini kuzatib borish zarur. Ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarni ertangi kunga umidi, o‘ziga ishonchini oshirishi, muntazam motivatsiya berib borishlari tavsiya etiladi. Ba’zan imkoniyati cheklangan bolalar maktabda va tengdoshlari orasida yakkalanish, kamsitilish holatlariga uchraganda, ota-onalarning o‘zi ruhan tushkunlikka tushib qoladilar. Ammo bunday vaziyatda o‘zlarini tutib olishlari va farzandlarini qo‘llab-quvvatlashga, ruhlantirishga harakat qilishlari kerak. Mahhur hikoyada aytilganidek, Tomas Edisonning o‘qituvchisi uning onasiga farzandining maktabda ta’lim ololmasligi, u ruhan sog‘lom emasligi haqida maktub yozadi. Bu maktubni onasi Edisonga “Sizning o‘g‘lingiz dahol. Bu maktab juda kichik, kerakli bilimni beruvchi o‘qituvchilar bu yerda yo‘q.” deb o‘qib beradi. Keyinchalik nima bo‘lgani esa hammamizga ma’lum — Tomas Edison o‘z zamonasining eng buyuk ixtirochilaridan biri bo‘lib yetishadi! Farzandlar oilada, maktabda va jamiyatda o‘z o‘rnini topishi juda ko‘p jihatdan ota-onaning munosabatiga, uni ruhan qo‘llab-quvvatlashlariga bog‘liq bo‘ladi. Ota-ona uchun o‘z farzandidan-da qadrliroq ne’mat bo‘lmas kerak. Ota ham, ona ham o‘z farzandlari uchun faqat yaxshilikni ravo ko‘radi. Ularning baxtu saodati uchun yashaydilar va mehnat qiladilar. Farzandlar esa buni o‘z vaqtida sezishlari va tushunishlari hamda o‘zlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanishga harakat qilishlari lozim. Ota-onalar, hatto bolalarining rivojlanishida biron-bir o‘qish yoki tengdoshlari bilan muloqot qilishda muammolarni ko‘rsalar ham, ko‘pincha unga qanday yordam berishni bilmaydilar.

Muammoni payqamaslik – bu imkoniyat emas, bu faqat bolaning axloqiy tushkunligini kuchaytiradi. Bolaning asosiy xislatlaridan biri ularning erkatoyligidir. Barcha bolalar erkatoylikka moyil bo‘ladi va ularning qilgan har bir xatti-harakatlarida erkatoylilik alomatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Ota-onalar ba’zi-ba’zida yoqimli, shirin so‘zlar aytishlari bilan bolalar erkalanadilar. Lekin, ota-onalarning o‘zlari qilayotgan ishlarini doimo o‘zlari bajarmasalar, qilgan harakatlari gapirgan gaplariga mos bo‘lmasa, so‘zlagan yaxshi so‘zlari hech qachon ijobiy natija bermaydi. Ro‘parasidagi o‘z bolasiga hech qanaqa foydasi bo‘lmaydi. Bolalarni tarbiyalashning yana bir usuli ularni kaltaklashdir. Biroq, bu ma’qullangan usul emas. Bunda ko‘p kaltak yegan bola diydasi qattiqlashib, atrofdagilarga nisbatan shafqatsiz bo‘lib boradi. Nafaqat o‘zini, balki ota-onasi, yaqin qarindoshlarini ham hurmatsiz qilib qo‘yadi. Bolalar tarbiyasida otaning qat’iyati, so‘zidan qaytmasligi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillardan hisoblanadi.

Otalar o‘zlarining bu xislatlarini farzandlariga sezdirib turishlari zarur. Onalar ham, o‘z navbatida, otalarning xuddi shu xususiyatlarini bolalarning yodiga solib turishlari, shu bilan o‘z farzandlarini turli yomon illatlardan qaytarib turishlari lozim. Ota-onalar o‘z farzandlarini butun hayoti mobaynida ma’naviy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlab, ularda sog‘lom fikrlarning shakllanishini ta’minlash uchun o‘z mehrlarini ayamaliklari kerak. Chin dildan mehrni his qilib ulg‘aygan bolalarning shaxsiyati, dunyoqarashi, kelajakda o‘zlariga nisbatan bo‘lgan ishonchi ortib boradi, mustaqil hayotda ham o‘z o‘rnilarini topa oladilar. Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalar bilan ish olib borishning muhim yo‘nalishlaridan biri – bu nogiron bolalarning ota-onalarining jamoat birlashmalarining (uyushmalarining) mavjudligidir. Chunki, bunday birlashma yoki uyushma ularning yolg‘izlanib qolmasligi hamda doimiy muloqot jarayonida bo‘lishlarining ishonchli kafolatidir. Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiya qilayotgan oilalarga yordam ko‘rsatish maqsadida tuzilgan bunday birlashmalar o‘z oldiga ota-onaning farzandiga uyetarlicha e’tibor qaratishi, bola ongiga “rivojlanishning maxsus qonunlari” tushunchasini singdirish, bolaning shaxsiy, aqliy, ijodiy va ijtimoiy resurslarini maksimal darajada ro‘yobga chiqarish kabi vazifalarni qo‘yadi. Bunda an’anaviy va noan’anaviy usullardan foydalanish mumkin. Ilmiy jihatdan olib qaralganda, ota-onalar ham turlicha tavsiflarga ega bo‘lib, inklyuziv ta’lim muhitida o‘zining tarkibi, manfaatlari, mavqei va ehtiyojlari bo‘yicha turlicha ahamiyat kasb etadilar, o‘zaro munosabatlari va aloqalari bo‘yicha doim ham uyg‘unlik shakllanmaydi. Bu esa o‘z navbatida inklyuziv ta’limning rivojiga ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston sharoitida maktabgacha va maktab ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni joriy etishda ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar quyidagi yo‘nalishlardan iborat bo‘lishi mumkin:

- ota-onalar o'rtasida ularning inklyuziv ta'lim bo'yicha bilimlari va tasavvurlarini aniqlash, inklyuziv ta'limga bo'lgan munosabatlarini o'rganish maqsadida pedagogik, psixologik va sosiologik so'rovnomalar o'tkazish;
- umumta'lim maktablari psixologlari tomonidan ota-onalar yig'ilishlarida, shuningdek, mahallalarda inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari yuzasidan zarur tushuntirish va targ'ibot ishlarini olib borish;
- hududlarda imkoniyati cheklangan bolalarni aniqlash, ularning ota-onalari bilan inklyuziv ta'limga jalb etish ishlarini olib borish;
- imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida rivojlanish nuqsonlari mavjud bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish bo'yicha ta'lim va tibbiyot muassasalari hamda ota-onalar hamkorligini kuchaytirish;
- Ijtimoiy tarmoqlar orqali inklyuziv ta'lim joriy etilishi bo'yicha onlayn maslahatlar berib borish, inklyuziv ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun tavsiyalar, tarqatmali materiallar, bukletlar va boshqa turdagi targ'ibot materiallari tayyorlash va tarqatish va boshqalar. Oilada ota-onalarning vazifasi esa bolalarni tinchlantirish, ularning tashvishlarini yengillashtirish, oilada ular uchun zarur shart-sharoitlar va qulay ichki muhitni yaratishdir. Imkoniyati cheklangan bolaning rivojlanishi ko'p jihatdan oilaviy farovonlikka, uning jismoniy va ma'naviy rivojlanishida ota-onalarning faol ishtirokiga va albatta alohida ta'lim berish sifatiga bog'liq bo'ladi. Bunday sharoitlarda bola o'zining harakatchanligi, yangi qirralarining "ochilishi", o'zini boshqalardan kam his qilmasligi va boshqa sifatlar tufayli erkin his qiladi va maqsad sari intiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalarning o'rnini nihoyatda muhim. Ularning qo'llab-quvvatlashi, sabri va faol ishtiroki bola rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maktab, psixolog va ota-onaning hamkorligi esa bu jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev, E.G'. Umumiy psixologiya – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
2. Davletshin, M.G. Yosh va pedagogik psixologiya – Toshkent, 2018.
3. Karimova, V.M. Ijtimoiy psixologiya – Toshkent, 2016.
4. Muxamedov, R. Ijtimoiy psixologiya asoslari – Toshkent, 2019.
5. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for Inclusion – Paris, 2009.
6. UNICEF. Inclusive Education and Children with Disabilities – New York, 2017.
7. Booth, T., Ainscow, M. Index for Inclusion – Bristol, 2011.
8. Florian, L. The SAGE Handbook of Special Education – London, 2014.
9. Hornby, G. Parental Involvement in Childhood Education – New York, 2011.
10. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Ta'lim to'g'risida – Toshkent, 2020.